

PAPER

## TALABALARDA ESTETIK – MADANIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Adasheva Xilola Maxmudovna <sup>1,\*</sup>

<sup>1</sup>Namangan davlat universiteti Mustaqil tadqiqotchisi

\* hilola.mahmudova78@gmail.com

### Abstract

Mazkur maqolada talabalarda estetik–madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy–metodologik asoslari, pedagogik shart–sharoitlari hamda amaliy mexanizmlari kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Estetik ong, did, qadriyat va madaniy xulq–atvorning shakllanish jarayoni oliy ta’lim muhitida shaxsning ma’naviy kamoloti, ijtimoiy faolligi va kasbiy yetukligi bilan uzviy bog‘liqlikda yoritiladi. Maqolada kompetensiyaviy yondashuv doirasida integrativ ta’lim texnologiyalari, interfaol metodlar, san’at va madaniyat komponentlarini o‘quv jarayoniga singdirish yo‘llari asoslab beriladi.

**Key words:** estetik kompetensiya, madaniy kompetensiya, estetik ong, estetik did, ma’naviy qadriyatlar, shaxs kamoloti, kompetensiyaviy yondashuv, integrativ ta’lim, interfaol metodlar, madaniy muloqot, ijodiy tafakkur, estetik tarbiya, pedagogik texnologiyalar, baholash mezonlari, oliy ta’lim tizimi.

### KIRISH

Estetik – madaniy kompetensiya – shaxsning borliqni estetik idrok etish, go‘zallik va uyg‘unlik qonuniyatlarini anglash, milliy hamda umuminsoniy madaniy qadriyatlarni chuqur o‘zlashtirish va ularni shaxsiy hamda kasbiy faoliyat jarayonida ongli ravishda namoyon eta olish qobiliyatini ifodalovchi murakkab jarayon va sifatidir. Ushbu tushuncha faqat san’at asarlarini tushunish yoki tashqi go‘zallikni his qilish doirasi bilan chegaralanmay insonning ichki madaniyati, axloqiy pozitsiyasi, estetik

didi, muomala uslubi va ijtimoiy xulq–atvorida namoyon bo‘ladigan barqaror fazilatlar majmuasini qamrab oladi. Pedagogik talqinda estetik–madaniy kompetensiya talabaning ma’naviy–ruhiy kamoloti, qadriyatlarga ongli munosabati, madaniy merosga hurmati va zamonaviy madaniy jarayonlarga faol integratsiyalashuvi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ko‘p qirrali hodisa sifatida e’tirof etiladi. Mazkur kompetensiya shaxsning ijtimoiylashuvi, o‘zini anglash jarayoni va kasbiy identifikatsiyasida muhim o‘rin egallaydi, chunki u tafakkur kengligi, estetik sezgirlik va madaniy mas’uliyatni uyg‘un holda shakllantiradi.

Compiled on: April 2, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Education* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

Estetik-madaniy kompetensiyaning tuzilmasi o'zaro bog'liq bo'lgan bir necha tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Avvalo, kognitiv borish madaniyatshunoslik, san'at nazariyasi, estetik kategoriyalar, milliy an'ana va qadriyatlar haqidagi tizimli bilimlarni o'z ichiga oladi hamda talabaning nazariy tayyorgarligini belgilaydi. Effektiv borish estetik hissiyot, did, go'zallikka nisbatan sezgirlik, madaniy qadriyatlarga hurmat va ichki ehtiyojlarning shakllanishi orqali namoyon bo'ladi. Amaliy borish esa estetik me'yorlarga amal qilish, madaniy muloqotni yuksak saviyada olib borish, ijodiy tashabbus ko'rsatish va kasbiy faoliyatda estetik tamoyillarni qo'llay olish ko'nikmalarini ifodalaydi. Ushbu komponentlarning uyg'unligi natijasida talaba yuksak estetik tafakkurga ega, madaniy jarayonlarga ongli munosabat bildiradigan va o'z faoliyatida go'zallik hamda ma'naviylik mezonlarini ustuvor qo'yadigan barkamol shaxs sifatida shakllanadi.

#### MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

XXI asrda estetik-madaniy kompetensiyani shakllantirish muammosi ko'plab yetakchi olimlar tomonidan kompetensiyaviy yondashuv, madaniyatlararo ta'lim va estetik tarbiya konsepsiyalari doirasida chuqur tadqiq etilgan. Jumladan, Govard Gardner ko'p qirrali intellekt nazariyasi asosida estetik va badiiy idrokni inson intellektining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilib, ta'lim jarayonida san'at va madaniyatni integratsiyalash shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qilishini ilmiy asoslab berdi. Marta Nussbaum insonparvarlik ta'limi konsepsiyasida estetik tarbiyani demokratik jamiyat uchun mas'ul, empatik va madaniy tafakkurga ega shaxsni shakllantirishning zarur sharti sifatida izohladi. Gert Biesta ta'limning subyektivlashuv funksiyasini ochib berar ekan, estetik tajriba shaxsning o'zligini anglash va madaniy pozitsiyasini belgilashda muhim pedagogik omil ekanini ta'kidlaydi. Elliot V. Eysner san'atga asoslangan ta'lim nazariyasini rivojlantirib, estetik tafakkur va tasavvur ijodkorlik hamda reflektiv fikrlashni chuqurlashtirishini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Entoni Giddens zamonaviylik va madaniy identiklik masalalarini tahlil qilib, globallashtirish sharoitida shaxsning madaniy o'zini anglash kompetensiyasini rivojlantirish zaruratini

ko'rsatdi. Shuningdek, Richard Florida "kreativ sinf" nazariyasi orqali estetik did, ijodiy muhit va madaniy kapitalning innovatsion taraqqiyotdagi o'rnini ochib berdi. Mazkur olimlarning tadqiqotlari estetik-madaniy kompetensiyani faqat badiiy did bilan cheklab qo'ymasdan, uni ijtimoiy faollik, madaniy identiklik, ijodkorlik va kasbiy muvaffaqiyat bilan uzviy bog'liq integrativ sifat sifatida talqin etishga imkon yaratdi.

#### TADQIQOT METADOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot metodologiyasi shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlar asosida qurildi. Jarayonda pedagogik kuzatish, suhbat, savol-javob, muammoli vaziyatlar yaratish, interfaol metodlar hamda ijodiy topshiriqlardan foydalanildi. Estetik-madaniy kompetensiyani shakllantirishda loyiha metodi, keys-stadi, bahs-munozara, rol o'ynash texnologiyalari va reflektiv tahlil usullari qo'llanildi. Shuningdek, badiiy matnlar, san'at namunalari va madaniy tadbirlar asosida tahliliy faoliyat tashkil etildi. Ta'lim jarayonida fanlararo integratsiya, hamkorlikda o'qitish va mustaqil ijodiy faoliyatni rag'batlantirish metodlari ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi.

#### TAHLIL VA NATIJALAR

XXI asr pedagogik amaliyotida talabalarda estetik-madaniy kompetensiyani rivojlantirish muammosi global ahamiyatga ega bo'lib, ushbu yo'nalishda olib borilgan yirik xalqaro tadqiqotlardan biri OECD (Tashkillashtirilgan Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti) tomonidan 2018 yilda amalga oshirilgan "Global Kompetensiya Tadqiqoti"dir.

Tadqiqotga 27 ta mamlakatdan jami 125432 nafar talaba va o'quvchi respondent jalb qilingan bo'lib, unda nafaqat rivojlangan davlatlar, balki rivojlanayotgan davlatlarning ta'lim tizimi ham o'rganilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – talabalarning globallashtirish dunyoda madaniyaro muloqot qobiliyati, estetik idrok darajasi, ijodiy va madaniy kompetensiyalarini xalqaro miqyosda solishtirishdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, global kompetensiya indeksi o'rtacha 0,62 indeksni tashkil etgan bo'lib, bu talabalarning estetik-madaniy tayyorgarligi hali mukammal darajada emasligini anglatadi. Tadqiqotda Finlyandiya

0,71 bilan eng yuqori ko'rsatkichni qayd etgan, Kanada 0,69 va Janubiy Koreya 0,67 bilan yaqin natijalar ko'rsatgan. Shu bilan birga, talabalarining nazariy bilim, san'at va madaniyatga integratsiyalashgan pedagogik tajribalarga bo'lgan munosabati ularning ijtimoiy moslashuvchanligi va jamoada samarali ishlash qobiliyatini o'rtacha 18,4% ga oshirishga xizmat qilganligi aniqlangan. Tadqiqot xulosalariga ko'ra, estetik va madaniy komponentlar talabalarda shaxsiy did, madaniy tafakkur va empatiya shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuningdek, tadqiqot pedagogik jihatdan ta'lim dasturlarida san'at va madaniyatni muntazam integratsiya qilish talabalar ongida estetik-madaniy komponentlarning barqaror rivojlanishiga olib kelishini ko'rsatadi. Bu esa XXI asr pedagoglari uchun muhim dalil bo'lib, ta'lim jarayonini faqat nazariy bilim bilan cheklab qo'ymaslik, balki talabaning amaliy va madaniy tajribalarini boyitish zaruratini tasdiqlaydi.

UNESCO tomonidan 2019 yilda amalga oshirilgan "Madaniyat va Rivojlanish Indikatori" monitoring dasturi estetik-madaniy kompetensiya masalasini butun dunyo miqyosida chuqur o'rganishga qaratilgan keng ko'lamli loyiha hisoblanadi. Ushbu dasturda 56 ta mamlakatdan jami 98 750 nafar yosh qatnashchilar tadqiq qilingan bo'lib, ularning madaniy tajriba, estetik idrok va madaniy kompetensiyalari batafsil o'rganilgan. Tadqiqotning asosiy vazifasi - talabalarining madaniy dasturlarda muntazam ishtirok etishi ularning estetik didi va madaniy tafakkuriga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashdan iborat bo'lgan. Natijalarga ko'ra, dasturga jalb etilgan respondentlarning 72,6% madaniy tadbirlarda muntazam qatnashgan holda estetik va madaniy kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirgan. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, bu yoshlar faqat nazariy bilimga ega bo'lib qolmay, balki madaniyatlarni anglash, boshqalarning qadriyatini hurmat qilish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini ham mustahkamlagan.

Xususan, Fransiya va Germaniya tajribasida madaniy loyihalarda faol ishtirok etgan talabalar ijodiy faollik ko'rsatkichlari 1,8 barobar oshgani qayd etilgan. Ushbu ma'lumot pedagogik jihatdan shuni ko'rsatadiki, estetik - madaniy kompetensiyani shakllantirish jarayonida nazariy bilimlar bilan birga talabalarga amaliy, ijodiy va

madaniy tajriba platformalarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot shuningdek, madaniy tadbirlarda muntazam qatnashish orqali talabalarda ijtimoiy mas'uliyat, hamkorlik va madaniy tafakkur kuchayishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, monitoring natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalari estetik va madaniy komponentlarni dasturga integratsiyalashda tizimli yondashuvni qo'llashi lozim, chunki bu talabaning shaxs sifatida barkamolligi va jamiyat hayotiga samarali integratsiyasini ta'minlaydi.

Yevropa miqyosida European Commission tomonidan 2021 yilda amalga oshirilgan "San'at Ta'limining Ta'siri" (Arts Education Impact Study) tadqiqoti estetik-madaniy kompetensiyani shakllantirishda san'atning pedagogik rolini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotga 12 ta davlatdan jami 64 315 nafar talaba jalb qilingan. Tadqiqotning asosiy vazifasi san'atga integratsiyalashgan o'qitish metodlari talabalarining estetik va madaniy kompetensiyalariga qanday ta'sir qilishini aniqlashdan iborat edi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, san'at asosidagi pedagogik yondashuv qo'llanilgan guruhlarda estetik tahlil va ijodiy fikrlash ko'nikmalari o'rtacha 37,9% dan 74,3% gacha oshgan. Madaniy muloqot samaradorligi esa o'rtacha 29,5% ga yaxshilangan. Tadqiqotda Italiya va Ispaniya tajribasi alohida ta'kidlangan bo'lib, san'atni integratsiyalashgan oliy ta'lim dasturlarida talabalarining ijodiy tashabbus ko'rsatkichlari 0,58 indeksdan 0,83 indeks gacha oshgani qayd etilgan. Ushbu natijalar pedagogik jihatdan shuni ko'rsatadiki, san'at nafaqat estetik idrokni rivojlantirish vositasi, balki talabaning madaniy tafakkuri, empatiya qobiliyati, murakkab muammolarni ijodiy yondashuv orqali hal qilish va ijtimoiy moslashuvchanligini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot shuningdek, ta'lim jarayonida san'at va badiiy metodlarni muntazam qo'llash talabaning estetik-madaniy komponentlarini barqaror rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Janubiy Koreya Ta'lim vazirligi tomonidan 2020 yilda o'tkazilgan milliy monitoring tadqiqoti estetik-madaniy kompetensiyani rivojlantirish samaradorligini baholashga qaratilgan. Tadqiqotga 45 200 nafar talaba jalb qilingan. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, estetik va madaniy elementlar bilan boyitilgan ta'lim dasturlarini tatbiq etgan

guruhlarda estetik kompetensiya o'rtacha 41,6% dan 76,2% gacha oshgan. Natijada pedagogik metodlarning mazmunini boyitish - badiiy matnlar, san'at amaliyotlari, madaniy diskussiyalar va ijodiy topshiriqlar orqali estetik va madaniy idrokni uyg'otish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirganini dalillaydi. Tadqiqot shuningdek shuni ko'rsatadiki, talabalarning estetik-madaniy komponentlarini shakllantirish jarayonida faqat nazariy bilim etarli emas, balki amaliy platformalar yaratish, madaniy tajriba berish va ijodiy tashabbusni rag'batlantirish pedagogik samarani sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, bu tadqiqot global va milliy pedagogik tajribalarni integratsiyalashda muhim model sifatida xizmat qiladi.

## XULOSA

Talabalarda estetik-madaniy kompetensiyani rivojlantirish XXI asr ta'limining muhim vazifasi hisoblanadi. Bu kompetensiya shaxsning madaniy tafakkuri, estetik didi, ijodiy fikrlashi va jamiyat bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini shakllantiradi. Xalqaro va milliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, san'at va madaniyat komponentlarini o'quv jarayoniga tizimli integratsiya qilish, interfaol va ijodiy pedagogik metodlardan foydalanish, madaniy tadbirlarda muntazam ishtirok etish talabaning estetik-madaniy qobiliyatlarini barqaror rivojlantiradi. Shu bilan birga, talabalarda empatiya, madaniyaro hurmat va innovatsion fikrlash ham kuchayadi. Pedagogik yondashuvlar ijodiy loyihalar, reflektiv tahlil, rolli o'yinlar va fanlararo integratsiyani o'z ichiga olishi samarali hisoblanadi. Natijada talaba nafaqat bilimli mutaxassis, balki ijtimoiy mas'uliyatga ega, madaniy va estetik didga ega barkamol shaxs sifatida shakllanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". – Toshkent: "O'zbekiston 2021. – 464 b. (Ma'naviy va madaniy rivojlanishning asosiy yo'nalishlari uchun).
2. Azizxo'jayeva, N.N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". – Toshkent: "Cho'lpon 2005. – 200 b.

3. To'rayev, B. "Estetika: darslik". – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati 2012. – 320 b.
4. Ibragimov, X.I., Abdullayeva, Sh.A. "Pedagogika nazariyasi (darslik)". – Toshkent: "Fan va texnologiya 2008. – 288 b.
5. Karimova, V.M. "Ijtimoiy psixologiya". – Toshkent: "Fan 2010. – 180 b.
6. Safarova, R.G. "O'quvchilarda estetik dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik asoslari"// "Pedagogika"jurnali. – Toshkent, 2018. – №4. – B. 12-18.
7. Zunnunov, A. "Pedagogika tarixi". – Toshkent: "Sharq 2004. – 272 b.
8. Siddiqjanov, Samandar. "Transport vositalari sanoatini texnik transformatsiyalashda venchur iqtisodiyoti masalalari."MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT 3.1 (2025).
9. Abdullaev, A. K. (2022). "Development of aesthetic competence of students as a pedagogical problem". European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(5), 45-49.
10. Abduraxmonovich, Saypullayev Ilhomjon, and Sidiqjonov Samandar Soxibjon o'g'li. "Concept of Venture Business and Its Prospects in Uzbekistan."INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036 13.04 (2024): 1-4.